

TA'LIM MUASSASALARIDA SAMARALI BOSHQARUVNI YO'LGA QO'YISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIK AHAMIYATI

Ortiqov G'ulomjon Solijonovich
Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim muassasalari rahbar xodimlarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, maktabning boshqaruv strategiyasini ishlab chiqishda rahbar tomonidan aniq maqsadlar qo'ya olish, tog'ri qarorlar qabul qilish muhim ahamiyatga ega ekanligi xususida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ kometentlik, ta'lim sifati, samaradorlik, strategiya, rahbar, maqsad, qaror.

Metodistning yangi pedagogik bilimlar va innovatsiyalarni o'zlashtirish jarayoni o'zining muayyan mazmuniga ega. Bu mazmun to'laqonli, kasbiy ahamiyatli, aniq dalillarga asoslangan, nisbatan qismlarni o'z ichiga olgan va to'liq bo'lmagan faoliyatdir.

Yangi kasbiy bilimlar va innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish jarayonini ikkiga bo'lish mumkin: a) nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni; b) amaliy tajribalar va texnologiyalarni o'zlashtirish jarayoni. Nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni o'qituvchilarning fikrlash, anglash, chuqur o'ylash, baholash, umumlashtirish, asoslash, muhokama qilish jarayonlari bilan bog'liq. Innovatsiyalarni amaliy o'zlashtirish esa ularni egallash harakatlarini o'z ichiga oladi.

Kasbiy malaka oshirish jarayonida har bir metodist pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirishi uchun qanday shart-sharoitlar yaratilsa, samaradorlikka erishish mumkin, degan savolga javob topish lozim. Xuddi mana shu yondashuvdan kelib chiqqan holda bu metodistning pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish modelini ishlab chiqish uchun nihoyatda zarurdir. Shu asosda biz metodistning pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish darajalarini quyidagicha: birlashgan-empirik daraja; nazariy-konseptual daraja; amaliy-modellashtiruvchi daraja; ijodiy tahliliy daraja kabilar bilan belgilashni maqsadga muvofiq deb topdik.

Har bir daraja o'zining mazmuni, tizimli tarzda uyg'unlashgan tarkibiga ega. Shu bilan bir qatorda, bu darajalar funksional elementlar bilan boyib, rivojlanib borish imkoniyatiga ham ega. Pedagogik innovatsiyalarni darajali o'zlashtirish jarayoni metodist malakasini uzluksiz oshirib borishni talab qiladi.

Metodistning kasbiy malakasini uzluksiz oshirishda ularning innovatsion faoliyatiga yaxlit pedagogik hodisa sifatida metodologik nuqtayi nazardan yondashish talab etiladi. Shundagina mazkur faoliyat quyidagi sifat ko'rsatkichlariga ega bo'ladi:

1. Kafolatlangan natija olish imkoniyatining mavjudligi: bunda metodist pedagogik hamkorlik va erkin muloqot metodidan foydalangan holda o'quvchilar orasida sog'lom ijodiy muhitni vujudga keltirish hamda pedagogik jaraenni samarali boshqarish orqali innovatsion faoliyat tajribasini qo'llash usullarini egallaydi.

2. Innovatsion pedagogik faoliyatning barqarorligi: bunda metodistning innovatsion faoliyatining muntazamligi va rivojlanuvchi xarakterga egaligi ta'minlanadi. Ta'lim jarayonini modernizatsiyalash imkoniyatlari kengayishi va chuqurlashishi jarayonida metodist ham o'z faoliyatini uzluksiz yangilash va barqarorlashtirishga intiladi.

3. Innovatsion faoliyatni egallashning qulayligi: bunda metodist uzluksiz malaka oshirish asosida bir-biriga o'zaro muvofiq keladigan usullar, metodlar, texnologiyalar, turli ilmiy manbalar, pedagogik jamoaning boshqa a'zolari, hududdagi ilg'or pedagoglardan o'zlashtiradi va o'z faoliyatida qo'llaydi.

4. Metodist faoliyatining yaxlitligi: bunda metodist shaxsini har tomonlama rivojlantirishga oid nazariy yondashuvlar va amaliy tajribalar pedagogik jarayonda ta'lim-tarbiya uyg'unligini ta'minlashga oid tajribalarni o'zlashtirish asosida vujudga keladi.

1. Metodistning pedagogik imkoniyatlarining kengligi: bunda metodist uzluksiz malaka oshirish tizimida o'zining pedagogik bilimlari va mahoratini oshirishi natijasida bir necha innovatsion usullardan foydalangan holda faoliyati jarayonida ijobiy ta'sir ko'rsatish ko'nikmalari va mahoratini o'zlashtiradi.

2. Metodist nazariy-amaliy bilimlari uyg'unligining ta'minlanganligi: mazkur yo'nalishdagi innovatsion faoliyat doirasida modernizatsiyalashgan ta'lim jarayoni oldida turgan asosiy muammolarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini mohirlik bilan tashkil etish, bunda noan'anaviy usullardan foydalanish mexanizmlarini o'zlashtirish nazarda tutiladi.

3. Metodist innovatsion faoliyatining istiqbolliligi va rivojlantirish imkoniyatiga egaligi: bunday faoliyat jarayonida metodist O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy rivojlanish maromini hisobga olgan holda ta'lim jarayonida ijtimoiy buyurtma mohiyatini chuqur idrok etish asosida o'quv-tarbiya jarayonini tashkillashtirishga oid zamonaviy bilimlar bilan qurollanishi kerak.

4. Metodist innovatsion pedagogik faoliyatining izchilligi va uzviyligi: bunday faoliyatni o'zlashtirish uchun yangi pedagogik xarakterdagi bilimlarni izchil tarzda o'zlashtirib borishi va ular orasidagi mantiqiy uyg'unlikni anglashi talab etiladi.

5. Metodist innovatsion faoliyatining ilmiyligi alohida ahamiyatga ega bo'lgan holat hisoblanadi. Chunki ilmiy jihatdan asoslanmagan usullarni innovatsion usullar sifatida ta'lim jarayonida qo'llash mumkin emas. O'z malakasini uzluksiz oshirishi jarayonida turli ilmiy manbalar yordamida muayyan innovatsion usullarga xos bo'lgan qarashlar va yondashuvlarning isbotlanganligi, pedagogik nazariyalarning

haqqoniyliги va ulardan ta'lim amaliyotida foydalanish imkonini beradigan tavsiyalarning mavjudligi bilan yaqindan tanishishi lozim.

6. Pedagogik innovatsiyalarning maqsadga muvofiq tarzda qo'llanilishi: bunda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan innovatsion usullar obyektiv ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishi muhim ahamiyatga ega. Mazkur usullar mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda ta'lim jarayoniga olib kirilishiga oid pedagogik-psixologik yondashuvlar bilan metodistni qurollantirish uzluksiz malaka oshirish tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy malaka oshirish tizimini joriy pedagogik tashhishlash muhim o'rin egallaydi va quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

Metodistlar malakasini oshirish tizimi har bir bo'g'in imkoniyatlarini aniqlaydi; har bir bo'g'in faoliyatidagi ijobiy va salbiy jihatlarni o'rganadi; kasbiy faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan metodikalarni ishlab chiqishga yordam beradi; har bir bo'g'inning ta'sir doirasini aniqlab, ular o'rtasida ikkiyoqlama aloqa shaklini belgilaydi; metodist faoliyatining ta'sirchan mezonlari aniqlanadi va ishlab chiqiladi; metodistning kasb malakasi darajasi uchun zarur bilim, ko'nikma va malakani qayd qilib boradi; pedagoglarning psixofiziologik xususiyatlari bilan ularning motivatsiyasi va malakasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydi; malaka oshirish tizimi uchun ta'limning optimal mazmuni va maqsadi, shakl, metod va vositalarini aniqlashda yordam beradi.

Pedagog faoliyatini tashxis qilish uzluksiz bo'lishi, ya'ni ta'lim muassasasi, fan metod birlashmasi, mahalliy metodik xizmat bo'g'inlari va malaka oshirish hududiy markazlaridan iborat tizim bilan birga amalga oshirilishi lozim. Bu tizim malaka oshirish mazmuni, shakllari va metodlari bilan uning oxirgi natijasi o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlab, metodistning kasbiy kompetentligining rivojlanishiga, ta'lim-tarbiyaning takomillashuviga olib keladi.

Metodistning pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirishiga yo'naltirilgan jarayonlarda muayyan sharoit yaratish uchun loyihalash usulidan foydalanish talab etiladi. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

a) metodistning o'quv kursi doirasida aniq pedagogik loyihalash faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun sharoit yaratish;

b) metodist o'zining dastlabki loyihalash ko'nikmalarini qayd etishlari, loyihalash yakunida esa o'zgarishlarga sabab bo'lgan holatlarni tahlil etishlarini tashkillashtirish talab qilinadi.

Metodist malakasini oshirish jarayonida bunday sharoitni yaratish uchun:

1. loyihalash faoliyatidan kelib chiqqan holda ta'limiy vaziyatlar tizimini vujudga keltirish;

2. metodologik nuqtayi nazarga tayangan holda tinglovchilarning loyihalash faoliyatini tanqidiy tahlil qilish va muammoli topshiriqlar bilan boyitish;

3. shu asosda o'z malakalarini oshiraётgan metodistning nazariy tahliliy faoliyatiga yo'l ochish kabilarni amalga oshirish kerak.

Kasbiy malaka oshirish jarayonida metodistning pedagogik innovatsiyalarni samarali o'zlashtirishi va qo'llashlarini ta'minlashda quyidagi didaktik vaziyatlar ham alohida ahamiyatga ega: pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va qo'llash nuqtayi nazaridan endashgan holda o'z ish tajribasini baholash va mustaqil baholashga yo'naltirilgan vaziyatlar; bunday vaziyatlar sirasiga asosiy fikrlarni izlashga yo'naltirilgan vaziyatlar, tashhishlash vaziyatlari, o'z-o'zini baholash vaziyatlari, ahamiyatli tanlovlar vaziyati, qo'zg'atish vaziyatlari kabilarni kiritish mumkin; innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish vaziyatlari; ular jumlasiga o'qitish, ideallashtirish, muammolar qo'yish, muammolar yechimiga yo'l topish kabilarni kiritiladi; o'quv predmetini o'qitish jarayonida metodistning o'zini kasbiy jihatdan namoyon qilish vaziyati; mazkur vaziyatlar turkumiga o'z-o'zini mustaqil tarzda fikriy ahamiyatlilik jihatdan aniqlash kiritiladi; innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayonida pedagogik faoliyatni loyihalash maqsadida o'z innovatsion bilimlarini tatbiq etish vaziyati; ular jumlasiga: faoliyatni loyihalashtirish, evristik jarayonlarni tashkil etish, faoliyatga moslashish, bashorat qilish, muammoli tahlil va o'z qarashlarini himoya qilishga yo'naltirilgan pedagogik vaziyatlarni kiritish mumkin.

Kasbiy malaka oshirish jarayonida metodistning pedagogik innovatsiyalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarini ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlari: malaka oshirish jarayonining yaxlit o'quv rejasi asosida tashkil etilishi ta'minlanib, mazkur o'quv kursi nazariy-amaliy bilimlar, interfaol xarakterdagi auditoriya mashg'ulotlari, o'z ish joyida malaka oshirishga sharoit yaratilishi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi doirasida metodistning pedagogik faoliyat loyihasini tuzishlari, o'z loyihalarini o'quv kursi davomida tajriba-sinovdan o'tkazishlari; kurs dasturi mazmunini konseptual, mazmunli, predmetli, individual bloklarga bo'lgan holda yangi vaziyatga ko'chirish kabilarda namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 868-son Qarori
2. Maksimchenko T.V. NNTlarda metodistning kasbiy mahoratini shakllantirish // Professional 0,3 p.l.)
3. O'quv majmuasini rivojlantirishni ilmiy qo'llab-quvvatlash / Maksimchenko T.V., Sergeeva T.A., Uvarova N.M. // Kasbiy ta'lim. -2005-yil. 0,1 s.l.)
4. Maksimchenko T.V. O'rta kasb-hunar ta'limi muassasalari metodistlarini malaka oshirish tizimi sharoitida innovatsion faoliyatga tayyorlash (1' O'rta kasb-hunar ta'limi . – 2010. – N26. – S 51-53. (muallif 0,4p.l.) Ilmiy maqolalar to'plamlaridagi maqolalar va jurnallar

5. Maksimchenko T.V. Malaka oshirish tizimida metodistning asosiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli// “Kasbiy ta’lim” jurnaliga “Ta’limdagi ilmiy tadqiqotlar” ilovasi. Poytaxt.- 2010.N26.- B.42-47 (muallif. O, 4 kv.)